

## Kishining pand-nasihati



17:02 / 06.06.2022 3114

Mo'min kishi qavmdoshlariga astoydil va do'stona pand-nasihatlar qilardi.

«lymon keltirgan kishi dedi: Ey qavmim! Sizlar menga ergashinglar, men sizlarni to'g'ri yo'lga yetaklayman». To'g'ri yo'ldagi kishi bildiki, qavmdoshlari hali dunyo hayoti bilan mast-alast yurishibdi.

Fir'avn molu davlati va kuch quvvati bilan mag'rur, aldangan. Lekin bu hayot shirin hayollar olami va bu dunyo zavol topib, yo'q bo'luvchidir. Mana shu dunyo mastligi odamlarni Muso alayhissalomga ergashishdan to'sib turganini u kishi bildi. Chunki ular dunyo mastligi bilan mast-alast edilar.

Zero, mast kishilarning hushi o'zida bo'lmaydi. Ular na eshitadilar va na his qiladilar. Mana shu sabab ular Musoning ovozini eshitishmadi.

Mo'min qavmini mana shu g'aflatdan uyg'otishga qasd qildi: «Ey qavmim, bu hayoti dunyo faqat bir (arzimas) matodir. Albatta oxiratgina (mangu) qarorgoh bo'lgan diyordir».

Johil odamlar mo'min kishini kufr va shirkka chorladilar. Ota-bobolari diniga qaytishni maslahat berdilar. Ularga «Allohgga qaytingiz!», deyilsa, ular «Ota-bobolarimiz dinini ushlaylik», deya javob berishdi.

Qavmdoshlari hadeb zalolatga chaqiravergach, mo'min kishi dedi:

«Ey qavmim, nega men sizlarni najotga-jannatga chorlasam, sizlar meni do'zaxga chaqirmoqdasizlar-a? Sizlar meni Allohga kofir bo'lishga va (o'zim iloh ekanligini) bilmaydigan narsalarni U zotga sherik qilishga chaqirmoqdasizlar. Men esa sizlarni qudratli, benihoya mag'firatli zotga chaqirmoqdaman».

- Sizlarning olihalaringiz tarafidan biron bir payg'ambar keldimi? Qaysi kitob nozil bo'ldi? Kim unga da'vat qildi. Ular faqat sizlar hamda otalaringiz o'zlaricha to'qib olgan nomlar xolos. Alloh taolo hech qachon but-sanamlar haqida hujjat tushirmagan. Mana bu Ibrohim, Yusuf va mana bu Allohning nabiyi Muso... faqat Allohga davat etganlar. Zero, har bir narsa Alloh taloning borligiga dalolat qiladi. Borliqning hamma burchagidan yolg'iz unga da'vat keladi.

«Shak-shubha yo'qki, albatta sizlar meni (ibodat qilishga) chaqirayotgan butlaringiz (jonsiz narsalar bo'lgani sababli) na dunyoda va na oxiratda (biron kimsani o'zlariga ibodat qilish uchun) da'vat qila olmas».

Qavmining hidoyatga kelishidan butkul noumid bo'lib, ularni beaqlliklaridan zerikkan mo'min kishi ularni tark qildi. Va dediki:

«Hali (boshlaringizga azob tushganida albatta hozir) men sizlarga aytayotgan so'zlarni eslaysizlar. Men o'z ishimni Allohga topshirurman. Zero, Alloh bandalarini ko'rib turguvchidir».

Darg'azab bo'lgan Fir'avn malaylari mo'minni o'ldirishga qaror qildilar. Lekin Alloh taolo uni saqlab qoldi. Dushmanlarini esa halok qildi.

«Bas, Alloh u (iymon keltirgan kishi)ni ularning makr-hiylalaridan saqladi va Fir'avn xonadonini yomon azob o'rab oldi».

***Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy***

***Tarjimon Anvar Ahmad***